

**PEDAGOGIK MULOQOT- TA'LIM SAMARADORLIGIGA TA'SIR KO'RSATUVCHI OMIL
SIFATIDA**

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10929740>

Rasulov Bekzod Uktamovich

*JDPU, Pedagogika va psixologiya fakulteti yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy
ishlar bo'yicha dekan o'rinbosari*

Annotatsiya. *Darsning sifati qaysi omillarga bog'liq degan savol tug'iladi? Birinchidan, ta'lim sifati o'qituvchining pedagogik mahoratiga, kasbiy faoliyatda mas'uliyatiga, o'quvchining ta'limga bo'lgan munosabatiga, ta'lim muassasasining moddiy texnik bazasiga, darsliklarning sifati hamda ularning o'quvchilarning yosh xususiyatiga mosligida, o'qituvchi-o'quvchi-ota-ona hamkorligining yo'lga qo'yilishiga hamda sog'lom o'qituvchi-o'quvchi munosabatlarning bog'liqdir.*

Kalit soz'lar: *dars, pedagogik mahorat, kasbiy faoliyat, o'qituvchi-o'quvchi munosabati, psixologik muhit, avtoritar, liberal, demokratik.*

Аннотация. *Возникает вопрос, от каких факторов зависит качество урока? Во-первых, качество образования зависит от педагогического мастерства преподавателя, профессиональной ответственности, отношения учащихся к образованию, материально-технической базы учебного заведения, качества учебников и их соответствия возрасту учащихся. -сотрудничество учеников и родителей и здоровые отношения между учителями и учениками.*

Ключевые слова: *урок, педагогическое мастерство, профессиональная деятельность, отношения учитель-ученик, психологическая среда, авторитарный, либеральный, демократический.*

Abstract. *The question arises, what factors depend on the quality of the lesson? Firstly, the quality of education depends on the teacher's pedagogical skills, professional responsibility, student's attitude to education, the material and technical base of the educational institution, the quality of textbooks and their suitability for the age of students. depends on the establishment of teacher-pupil-parent cooperation and healthy teacher-pupil relations.*

Key words: *lesson, pedagogical skill, professional activity, teacher-student relationship, psychological environment, authoritarian, liberal, democratic.*

Bugungi kunda mamlakatimizda sifatli ta'lim eng muhim va dolzarb masalaga aylangan. Dars sifati, ta'lim va tarbiya sifati mamlakat taqdiri uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligini tarix ko'p marta isbotlagan haqiqatdir.

Darsning sifati qaysi omillarga bog'liq degan savol tug'iladi? Birinchidan, ta'lim sifati o'qituvchining pedagogik mahoratiga, kasbiy faoliyatda mas'uliyatiga, o'quvchining

ta'limga bo'lgan munosabatiga, ta'lim muassasasining moddiy texnik bazasiga, darsliklarning sifati hamda ularning o'quvchilarning yosh xususiyatiga mosligida, o'qituvchi-o'quvchi-ota-ona hamkorligining yo'lga qo'yilishiga hamda sog'lom o'qituvchi-o'quvchi munosabatlarning bog'liqdir.

O'quvchilar va o'qituvchilar o'rtasidagi munosabatlarning asosi - o'zaro hurmat va ishonch bo'lishi zarur. O'qituvchilar o'quvchilarga hurmat ko'rsatsa va qiyin vaziyatlarda ularga yordam berishga tayyorligi bolalar va o'smirlarning yaxshiroq o'qishiga hamda fan mavzularini puxta o'zlashtirishiga sabab bo'ladi. Maktabda sog'lom munosabatlarni shakllantirish uchun bir-biriga ijobiy munosabatda bo'lish muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

O'qituvchi va o'quvchi maktabdagi eng muhim ikki shaxsdir. Ta'lim va ta'lim jarayonida muvaffaqiyatlar ko'p jihatdan ular o'rtasida shakllanadigan ijobiy munosabatlarga bog'liq. Shubhasiz, pedagogika oliy ta'lim muassasalarini tamomlagan, har bir yosh o'qituvchi maktabga kelganida shogirdlari uchun eng yaqin do'st bo'lishga harakat qilishni, ularni tushunishni, qo'llab-quvvatlashni xohlaydi. Ammo maktabda bir muncha vaqt ishlagan yosh o'qituvchi o'z orzularini ro'yobga chiqarish unchalik oson emasligini va buning uchun yetarli darajada pedagogik kompetensiyalarga ega bo'lishi kerakligini tushunadi.

Pedagogik faoliyatni boshlagan o'qituvchilar o'quvchilar bilan munosabatga kirishish jarayonida turli xil ziddiyatli hodisalarga duch keladi. Bu holatlarga tayyor bo'lish uchun pedagogika oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak o'qituvchilarni chuqur pedagogik va psixologik bilimlar bilan qurollantirish zarur.

Pedagogik muloqot — pedagogik ta'sirning ajralmas sifatidir. Bu o'qituvchi va o'quvchining ta'lim-tarbiya jarayonidagi professional muloqoti bo'lib, unda ma'lumot almashinadi va o'quvchilarga o'quv- tarbiyaviy ta'sir o'tkaziladi. Bunda ikki yoqlama muloqot yuzaga kelishining asosi sifatida o'zaro hurmat va ishonch xizmat qiladi.

O'qituvchining ishi muloqotsiz mumkin bo'lmagan inson mehnatining turiga kiradi. Chunki ta'limva tarbiya jarayonidagi asosiy qurol bu muloqot jarayoni hisoblanadi.

Muloqot orqali o'qituvchi o'z o'quvchilarning xulq-atvorini nazorat qiladi hamda ularda ijobiy xulq-atvor shakllanishi uchun asos hisoblanadi.

Bugungi kunda samarali hisoblangan pedagogik muloqot natijasida o'quv faoliyatida sog'lom psixologik muhit hosil bo'ladi. O'quv jarayonida va tarbiya jarayonida pedagogik muloqot o'quvchi shaxsiga ta'sir qilish vositasi bo'lib xizmat qiladi.

O'qituvchi dars jarayonida o'quvchilar bilan muloqotga kirishar ekan unda bir nechta usullardan foydalanadi. Bular avtoritar, liberal va demokratik boshqaruv usullaridir.

Avtoritar uslub bilan muloqotga kirishish jarayoni qat'iy boshqaruv bilan amalga oshiriladi. Dars jarayonida har tomonlama nazoratni amalga oshiradi. Avtoritar uslub bilan muloqotga kirishuvchi o'qituvchi vazifaning nafaqat umumiy maqsadlarini, balki vazifalarni qanday bajarish kerakligi, guruhlarni tashkil etish jarayonlarigacha o'zi belgilab beradi. Bu bir qaraganda sinfda intizomni vujudga kelganday ko'rinsada, aslida

o'quvchilarda ta'lim olishga nisbatan motivatsiya so'nishi mumkin. Shuningdek, mantiqiy fikrlash, faollik, ijodiy tafakkur jarayonlari bir muncha sustlashishi kuzatilishi ehtimoli ortadi.

O'qituvchi o'quvchilarga doimiy talablar qo'yib boradi hamda ushbu talablarning bajarilishini qattiq nazoratga oladi. Shuningdek, muammoli vaziyatlarda muhokama jarayoniga o'quvchilar ishtirok etadi. Lekin muammoni yechimi va qarorlar qabul qilishda o'qituvchi o'z ko'rsatmalariga muvofiq qabul qilinadi.

Liberal uslub. O'qituvchi va o'quvchi munosabatlarining liberal uslubida o'qituvchi dars jarayonida mas'uliyatni o'z bo'yniga olmaydi. O'quvchilar vazifalarni bajarishlari uchun keragidan ortiq imkoniyat beriladi. Shubhasiz o'quvchilar bunday sinfda ishlashdan ko'ngli to'lmaydi. O'quvchilarda vazifalarni bajarish uchun hech qanday mas'uliyat bo'lmaydi. Bu esa bora bora ta'lim jarayoniga beparvolikni keltirib chiqaradi. O'quvchilar o'zidan qoniqmaslik holatlari rivojlanib borishi natijasida ta'lim sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Demokratik uslubda muloqot olib boruvchi o'qituvchilar birinchi o'rinda o'quvchi shaxsiga emas, balki faktlarga baho beradi. Shuningdek, bu uslubda o'qituvchi o'quvchilarning dars mashg'ulotidagi muhokamalarda erkin va faol ishtirok etadi. Buning natijasida o'quvchilarda o'z-o'ziga nisbatan ishonch hissi paydo bo'ladi. O'qituvchi tomonidan o'quvchilarning o'zini o'zi boshqarish qobiliyatlari rivojlantiriladi. Shuningdek, o'quvchilarda tashabbuskorlik hamda liderlik qobiliyatlari shakllanadi.

Shunday qilib, o'qituvchi bugungi kunda pedagogik muloqotda ijobiy yoki salbiy natijaga erishadimi o'zining muloqotchanlik qobiliyatlari shakllanganlik darajasiga bog'liq.

Quyida pedagogik muloqotning muhim sifatlarini ko'rib chiqamiz:

- Bolalar bilan muloqotga ehtiyojning mavjudligi, bolalar bilan ishlash jarayoniga yuqori qiziqish;
- Hissiy empatiya;
- Auditoriyaga moslashuvchanlik, o'quvchilarning yosh va individual xususiyatlarini e'tiborga olgan holda nutq ta'sirini moslashtirish qobiliyatining mavjudligi;
- O'qituvchi o'zini nazorat qila olishi. Bunga tana, ovoz, yuz, kayfiyat, fikr va his-tuyg'ularni nazorati kiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. - Toshkent, O'zbekiston, 2017. - 488 b.
2. Muslimov N.A va boshqalar. Innovatsion ta'lim texnologiyalari. O'quv-metodik qo'llanma. – T.: “Sano-standart”, 2015. – 208 b.
3. Muslimov N.A va boshqalar. Pedagogik kompetentlik va kreativ asoslari. O'quv-metodik qo'llanma. – T.: “Sano-standart”, 2015. – 120 b.

4. Ishmuhamedov R.J., M.Mirsolieva. O'quv jarayonida innovatsion ta'lim texnologiyalari. – T.: «Fan va texnologiya», 2017, 60 b.

5. Pedagogika: 1000 ta savolga 1000 ta javob/ Metodik qo'llanma. U.I.Inoyatov, N.A.Muslimov, M.Usmonboeva, D.Inog'omova. – Toshkent: Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, 2012. – 193 bet.